

**OLIY VA KASB-XUNAR TA'LIM MUASSASASI KUTUBXONA
XODIMLARINI AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYA
KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH**

Abdurashid Olimov Farxodovich

Namangan Davlat texnika univerteti katta o'qituvchisi

olimova7512@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Oliy va kasb-xunar ta'lim muassasasi axborot resurs markazi xodimlarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini bugungi kun talabiga mo'fiq qo'llay olish va malakalarini muntazam oshirib borishlari xamda ARMdagi avtomatlashtirilga dastur platformasida ishlay olish va kerakli ma'lumotlarni olib foydalanishlari ko'zda tutulgan.

Kalit so'zlar: axborot , ARM, AKM, AKT , OKK , KARMAT – ARMAT, elektron katalogiga , elektron kutubxona.

**ФОРМИРОВАНИЕ КОМПЕТЕНТНОСТИ В ОБЛАСТИ ИНФОРМАЦИОННО-
КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ У БИБЛИОТЕЧНЫХ
РАБОТНИКОВ ВЫСШИХ И ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ
УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ**

Старший преподаватель Наманганского государственного технического
университета Абдурашид Олимов Фарходович

olimova7512@gmail.com

Аннотация: В статье предусмотрено, что сотрудники информационно-ресурсного центра высшего и профессионального учебного заведения должны уметь пользоваться информационно-коммуникационными технологиями в соответствии с современными требованиями и регулярно повышать свою квалификацию, а также уметь работать на программной платформы автоматизации ИРЦ и использовать необходимую информацию.

Ключевые слова: информация, ИРЦ, ИБЦ, ИКТ, ВБК , АСКИРЦ - АСИРЦ, электронный каталог, электронная библиотека.

Respublikada ijtimoiy-iqtisodiy sohani isloh qilishning hozirgi sharoitida axborot-kutubxona faoliyatini rivojlantirishning maqsad va vazifalari mamlakatda amalga oshirilayotgan o'zgarishlarga va xalqaro amaliyotga mos bo'lishi zarur. SHu munosabat bilan fuqarolarning axborotdan erkin foydalanish bo'yicha konstitutsiyaviy huquqlarini, shu jumladan milliy qadriyatlar va jahon madaniyati, amaliy va fundamental bilimlardan bahramand bo'lishini tahminlaydigan aholiga axborot-

kutubxona xizmatlari ko'rsatishning sifat jihatdan yangi tizimini yaratish, kutubxonalarda saqlanayotgan milliy madaniy merosni asrab-avaylash va boyitish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish hisobiga axborot-kutubxona muassasalari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish ustuvor vazifaga aylanmoqda. Bu esa, axborot-kutubxona faoliyatiga, kitobxonlarga xizmat ko'rsatish, fondlarni to'ldirish va saqlash, kutubxona jarayonlarini avtomatlashtirish, ilmiy-tadqiqot va tashkiliy-uslubiy faoliyat, kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va rag'batlantirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirishga jiddiy tahsir ko'rsatish imkonini beradi.[8]

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash sharoitida foydalanuvchilarning faoliyat ko'rsatishga tayyorgarligi muammosi kop qirrali hisoblanib, keng doiradagi masalalarni o'z ichiga oladi. OTM ARMi xodimlari va foydalanuvchilarining AKTni qo'llashga tayyorligi masalasi quyidagi [1, 2, 3, 4] ishlarda ko'rib chiqilgan. Bizning tadqiqot nuqtai nazaridan alohida ahamiyatga ega bo'lgan masala bo'lib, kutubxona xodimlarining ham, shuningdek foydalanuvchilarining ham shaxsini axborot madaniyatini tarbiyalashda axborot-kommunikatsiya kometentligini shakllantirish vazifasi hisoblanadi.

Mavjud bo'lgan kutubxona mutaxassislarini o'qitish shakllarini ko'rib chiqaylik. Oxirgi besh yil ichida axborot tizimlari va tarmoqlari sohasida kasbiy gumanitar, shuningdek amaliy tayyorgarlikning fundamental nazariy-metodik darajasi, tabiiy dunyoqarashni kuchaytirish masalasi kutubxonachilik bo'yicha mutaxassislarni tayyorlovchi OTMlar saviyasi ko'tarildi. "Kasbiy kutubxonachilik bo'yicha ta'lim" mavzusidagi ishlarda yetakchi o'rinni O'zMU, TATU o'qituvchilari va 'rofessorlari ishlari egallaydi. Jamiyatning global axborotlashuvi va kompyuterlashuvi tendentsiyasi madaniyat OTMlari o'quv rejasida katta o'zgarishlar kiritilishiga olib keldi, bu esa o'z tasdig'ini Davlat ta'lim standartlarida to'di. Biroq, oliy kasbiy ta'lim bo'yicha Davlat ta'lim standarti mutaxassislar tomonidan o'quv darslari tarkibi bo'yicha ham, ularni o'rganish uchun ajratilgan o'quv soatlari bo'yicha ham qattiq tanqid ostiga olindi xamda malaka oshirish qo'shimcha kasbiy ta'lim bo'yicha yaxlit bir tizimning elementi sifatida chiqishi, uning vazifasi kutubxona xodimlarining kasbiy bilimlarini uzluksiz ravishda oshirishlarini tahminlab berishi ko'rsatilgan o'tildi.

Г.Б. Папшыкова [5] tahkidlaganidek, zamonaviy kutubxonachilik tizimida 2010 yillarning boshida kadrlar malakasini oshirish bo'yicha quyidagi yo'nalishlar yo'lga qo'yildi:

- umumiy nazariy darajani ko'tarish, amalaiy-nazari bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish;
- mehnat va boshqarishni ilmiy tashkillashtirish asoslarini o'rganish;
- kutubxonachilik sohasida funktsional mutaxassislik;
- kutubxonachilik sohasidagi yangi texnologiyalarni egallash;

-mahlum fan sohalaridagi bilimlarni yangilash va o'zlashtirish.

Oliy va kasb-xunar ta'lim kutubxona-axborot muassasalarining axborot, ilmiy va kadrlar bo'yicha salohiyatini rivojlantirish, ta'limni uzluksizligini tahminlash; mutaxassislarning kasbiy, umumta'lim va madaniyat darajasini oshirish bo'yicha xattixarakterlarini ji'slash maqsadida 2015 yili TATU qoshida uzluksiz ta'lim bo'yicha kutubxonachilik xududiy markazi ochildi. Oliy kutubxonachilik kurslari (OKK) – yo'nalish bo'yicha oliy mahlumotli mutaxassislarni o'qitishning shakllaridan biri hisoblanadi. O'qish davri – bir o'quv yili, o'qitish shakli – kechki. 2019 yildan boshlab xududlar ARMi tomonidan berilgan buyurtmalar bo'yicha oliy kutubxonachilik kurslari O'zMU va TATU mutaxassislari tomonidan kutubxonachilik kurslari tashkil qilindi.

OKK o'quv dasturi madaniyat va sa'nat OTMlarining kutubxonachilik-axborot mutaxassisligi o'quv dasturiga o'xshash bo'lib, 300 soatga mo'ljallangan. Tinglovchilar kom'g'yuter texnologiyalari sohasi bo'yicha quyidagi yo'nalishlarda bilim oladilar: kutubxonachilik jarayonlarini avtomatlashtirish bo'yicha texnik vositalar; informatika; yangi axborot texnologiyalari; kutubxonachilik ishida innovatsion axborot texnologiyalari. Nazariy v amaliy mashg'ulotlarni TATU mutaxassislari – fan doktorlari va kandidatlari, tajribali 'edagoglar va amaliyotchilar olib boradilar. Kurs yakuni bo'yicha tinglovchilar bitiruv imtixonini to'shiradilar va guvohnoma oladilar.

Malaka oshirishi shakllarini rivojlanishining ustivor yo'nalishlaridan biri bu masofadan o'qitishdir. Masofadan o'qitishning afzalligi quyidagi qator omillar bilan belgilanadi: bilimlar, malaka oshirish, qayta tayyorlashni doimiy ravishda yangilab turish zaruriyati, bunda axborot muhiti bilan o'zaro interaktiv ravishda ishlash va mashg'ulotlar rejimini tanlash imkoniyati bo'ladi. Kutubxonachilarni uzluksiz ta'lim, masofadan o'qitish doirasida qayta tayyorlash ishlab chiqilish bosqichida turibdi [6].

Tez rivojlanayotgan AKT kutubxona xodimlaridan uzluksiz ta'lim olishni talab etmoqda. Ushbu masalaga cho' etilgan [7] ishlar bag'ishlangan. Kutubxona xodimlarini o'qitish bo'yicha alohida ehtibor ARM konsortsiumi, masalan KARMAT - ARMATni tashkil etishda qaratilmoqda. Elektron ARMda KARMATda kor'orativ sifatida qabul qilingan zamonaviy standartlar bilan ishlashning qonuniy jihatlarini o'rgatish ishlari olib boriladi. Tinglovchilar uchun 10dan ortiq o'quv dasturlari taklif etiladi. Har bir dastur 36 soatga mo'ljallangan bo'lib, uning yarmi nazariy tayyorgarlikka, ikkinchi yarmi esa amaliy mashg'ulotlarga ajratilgan bo'ladi.

TATU ilmiy kutubxonasida ishlab chiqilgan ARMAT 'latformasi «Xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish dasturi» AKT tadbiq etish sharoitida kutubxona xodimlarini bilim va ko'nikmaga ega bo'lishlari uchun o'qitish uchun yo'riqnoma bo'lib xizmat qiladi. Dasturning asosiy jihatlaridan biri – amaliyotga yo'naltirilganlik, o'qishni maksimal darajada ishchilarning ish o'rinlariga

yaqinlashtirgan holda o'tish va bu ular tomonidan o'zlarining aniq ish yo'nalishida kerakli ko'nikmalarga ega bo'lishlari uchun zarur bo'ladi.

Xulosa: Oliy va kasb-hunar ta'lim muassasalaridagi kutubxona xodimlarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) bo'yicha kompetentligini shakllantirishni zamonaviy jamiyatda ilmiy, madaniy va axborot xizmatlarini rivojlantirishning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu masala bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib, texnologiyalarni joriy qilish orqali nafaqat kutubxona xodimlarining kasbiy malakasi, balki ta'lim jarayonining umumiy samaradorligi ham oshadi. Kutubxona xodimlarining AKT kompetentligini shakllantirish – bu axborot resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish va zamonaviy xizmatlarni rivojlantirish uchun muhim shartdir. Oliy va kasb-hunar ta'lim muassasalarida ushbu jarayonni tashkil qilish kutubxona xizmatlarini yangi bosqichga olib chiqadi. Bu esa ta'lim sifati va foydalanuvchilarning qoniqish darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun AKT kompetentligini shakllantirishga alohida e'tibor qaratish va ushbu jarayonni uzluksiz rivojlantirish zamonaviy kutubxona faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1.Гендина, Н. И. Состояние теории, практики и подготовки кадров всфере лингвистического обеспечения информационно-библиотечной технологии: стимулы и препятствия: [10-я Междунар. конф. «Крым–2003» / Н. И. Гендина

2.Галлимор, А. Стратегии развития библиотек в информационном обществе: вустепление на конференции «Онлайн 97» в Лондоне в декабре 1997 г. / А. Галлимор // Науш. и техн. б-ки. – 1998.

3.Жаворонков, В. Д. Электронная библиотека в системе выссего учебного заведения

4.Земсков, А. И. Методика тьебования курса «Электроннке библиотеки»: [10-я Междунар. конф. «Крим–2003»] / А. И. Земсков //Наусх. и техн. б-ки – 2004. – № 4. – С. 19–28. 144

5. Г.Б.Паршукова. компьютерные инструменты в библиотесчной деятельности 2005. – № 4. – с. 11–18.

6.Васильева, Н. В. Место вузовской библиотеки в роцессе дистанционного обучения / Н. В. Василгева // Новая библиотека. – 2001. –№ 4–5. – С. 26–27.

7.Каримов У. Ф., Рахматуллаев М. А., Мухамадиев А. С., Атажанов Ж. Корьоратив ахборот-ресурс марказларининг автоматлаштирилган тизими (КАРМАТ). Услубий кўлланма. .-Тошкент.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. 2008.-35 б.